

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD. 03/2025.27.12. Fil.06.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**NIYOZMATOV ELNUR XUSIN O‘G‘LI**

**HOZIRGI O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA TASHXIS VA TAZOD SAN‘ATLARI  
TADRIJI**

**10.00.02- O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2026**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Philological sciences**

<b>Niyozmatov Elnur Xusin o‘g‘li</b> Hozirgi o‘zbek she‘riyatida tashxis va tazod san‘atlari tadriji.....	3
<b>Ниёзматов Елнур Хусин ўғли</b> Эволюция приёмов олицетворения и антитезы в современной узбекской поэзии.....	29
<b>Niyozmatov Elnur Xusin ugli</b> The Evolution of ‘Personification and Antithesis in Modern Uzbek Poetry.....	55
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	60

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD. 03/2025.27.12. Fil.06.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**NIYOZMATOV ELNUR XUSIN O‘G‘LI**

**HOZIRGI O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA TASHXIS VA TAZOD SAN‘ATLARI  
TADRIJI**

**10.00.02- O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2026**

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil3014 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Miliyev Suvonqul**

filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar**

**Boltayeva Gulchehra Shokirovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Matyakupov Sa'dulla Gaipovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "2" aprel soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00, e-mail: [fil-ik.urdu.uz](mailto:fil-ik.urdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ A-2209 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00), e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" mart da tarqatildi.  
(2026-yil "13" mart dagi 84 raqamli reestr bayonnomasi).



**D.Q.G'ayipov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**S.Atajanov**  
Ilmiy daraja beruvchi kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**A.I.Primov**  
Ilmiy daraja beruvchi kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari  
doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon mumtoz adabiyoti xazinasiga o‘ziga xos ulkan hissa qo‘shgan va o‘zining boy tarixiy merosiga ega bo‘lgan o‘zbek she‘riyati tili, badiiyati, uslublari, mazmun va shakliy o‘zgarishlari bilan tobora rivojlanib, yuksalib bormoqda. Bugungi kun o‘zbek she‘riyatining kamolot cho‘qqisiga yetishida ijodkorlar bilan bir qatorda adabiyotshunos olimlar o‘zlarining ilmiy-nazariy izlanishlari, yangi g‘oyalar, yangicha evrilishlar, o‘zgarishlar haqida yaratgan ilmiy-amaliy qo‘llanmalari, risola va maqolalari bilan ushbu sohaning yanada rivojlanishiga hissa qo‘shishmoqda. Natijada o‘zbek xalqining dunyoqarashi, e‘tiqodi, orzu-armonlari hamda xarakter xususiyatlaridan kelib chiqib, badiiy vositalarning zamonaviy she‘riyatimizdagi o‘ziga xos jihatlarga ega ekanligi bilan asoslanmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida Sharq mumtoz she‘riyatiga xos badiiyat masalalariga e‘tibor qaratish, xususan, badiiy san‘atlarning xususiyatlari, tadrijini aniqlash, ularning tarixiy taraqqiyotini o‘rganish, jonlantirish va qarshilantirish (tazod)ning obrazlilikni yuzaga keltirishi va she‘riy san‘atlar tizimidagi o‘ziga xos o‘rni, vazifalari va ahamiyatini ochib berishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim nazariy ahamiyatga ega. Badiiy tasvir masalasiga dastavval Aristotelning “Poetika” asarida diqqat qaratilgan bo‘lib, unda “adabiyotning estetik-ta‘sirchan qudrati” dolzarb ilmiy-nazariy qimmatga ega ekanligi e‘tirof etiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida mustaqillikdan keyin Usmon Azim, Xurshid Davron, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Vafo Fayzulloh kabi shoirlar ijodini o‘rganishga va ularga munosib baho berishga, mumtoz she‘riyatga xos ifoda usullari, badiiy tasvir vositalari hamda imkoniyatlarini tadqiq qilishga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. Zero, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san‘atimiz ham albatta bo‘ladi”<sup>1</sup>. Binobarin, she‘r badiiyatini belgilab beruvchi badiiy san‘atlarni ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish va bu orqali o‘zbek she‘riyatiga o‘zbek xalqining ma‘naviy qadriyatlari bilan bog‘liq holda xolis baho berish o‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biridir. Hozirgi o‘zbek she‘riyati (XX asr oxiri – XXI asr boshlari) materiali asosida tashxis va tazodning qo‘llanilishdagi tadriji, ularning an‘anaviy qoliplardan (masalan, gul-bulbul, oy-quyosh) chiqib, yangicha falsafiy-psixologik obrazlar (masalan, mavhum tushunchalar – xiyonat, xayol; insonning ichki “men”i) yaratishdagi roli alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Mavjud tasniflar zamonaviy she‘riyatdagi bu yangilanishlarni va ularning tadrijiy rivojini to‘liq qamrab ololmaydi. Ushbu tadqiqot an‘anaviy san‘atlarning hozirgi she‘riyatdagi tadrijini tahlil etish orqali ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир. // “Халқ сўзи”, 2017 йил, 4 август.

O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlanishi bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli farmon “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958 sonli Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2018-yil 5-iyunidagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, shuningdek, “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori” mavzusidagi ma’ruzasi hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar tadqiqotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Sharq adabiyotshunosligida, xususan, o‘zbek mumtoz poetikasida badiiy san’atlarni o‘rganish uzoq tarixga ega. Qudama ibn Ja’far (“Naqd ush-she’r”), Ibn al-Mu’tazz (“Kitob ul-badi’”), Rashididdin Vatvot (“Hadoyiq us-sehr”), Atoulllo Husayniy (“Badoyi’ us-sanoyi’”) kabi arab va fors olimlarining asarlari, shuningdek, Ahmad Taroziyning turkiy tildagi ilk manba – “Funun ul-balog‘a”si bu sohaning nazariy asoslarini yaratgan.

XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida A.Sa’diy, A.Fitrat, M.Shayxzoda tomonidan badiiy san’atlar masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda A. Rustamov<sup>1</sup>, Y.Is’hoqov<sup>2</sup>, B.Sarimsoqov<sup>3</sup>, T.Boboyev<sup>4</sup>, V.Rahmonov<sup>5</sup>, A.Hojiahmedov<sup>6</sup> kabi olimlarning tadqiqotlarida mumtoz

<sup>1</sup> Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.

<sup>2</sup> Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014.

<sup>3</sup> Саримсоков Б. Сажъ // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971. – №2; Саримсоков Б. Тажнис // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1971.

<sup>4</sup> Бобоев Т. Шеър или таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

<sup>5</sup> Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Ленинобод, 1972.

badiiyat masalalari, ayrim san'atlarning (masalan, talmeh<sup>7</sup>, tamsil<sup>8</sup>) tahlili va umumiy tasniflari ishlab chiqildi. Mustaqillik davrida bu yo'nalishda N.Afoqova<sup>9</sup>, K.Mullaxo'jayeva<sup>10</sup>, N.To'lanova<sup>11</sup>, Z.Mamajonov<sup>12</sup> kabi tadqiqotchilar tomonidan dissertatsiyalar himoya qilindi.

Shunday bo'lishiga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar yo umuman badiiy san'atlar tasnifiga, yo ayrim san'atlarning mumtoz adabiyotdagi talqiniga bag'ishlangan. Aynan tashxis va tazod san'atlarining *hozirgi o'zbek she'riyati* (XX asr oxiri – XXI asr boshlari) doirasidagi *tadriji*, ularning an'anaviy qoliplardan yangicha falsafiy-psixologik mazmun kasb etishi, zamonaviy shoirlar (A.Qutbiddin, A.Said, V.Fayzulloh kabi) ijodidagi funksional-semantik xususiyatlari alohida va tizimli tadqiqot obyekti bo'lmagan. N.To'lanovanning dissertatsiyasida hozirgi she'riyatda badiiy san'atlarning lisoniy-uslubiy tahlili berilgan bo'lsa-da, unda tashxis va tazodning tadrijiga maxsus e'tibor qaratilmagan. Z.Mamajonovning tadqiqoti esa asosan o'xshatishga asoslangan san'atlarning nazariy tavsifi va tasnifiga bag'ishlangan.

Shunday qilib, tashxis va tazod san'atlarining hozirgi o'zbek she'riyatidagi tadrijiy rivoji, ularning yangilangan badiiy funksiyalari va zamonaviy poetik tafakkurdagi o'rnini aniqlash masalasi o'zbek adabiyotshunosligida hali to'liq o'rganilmagan ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu dissertatsiya ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligi bilan avvalgi tadqiqotlardan farq qiladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Urganch davlat universitetining “O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tashxis va tazodning obrazli tafakkur va badiiy san'atlar tizimidagi o'rnini aniqlash va ularning hozirgi o'zbek she'riyatidagi tadriji ahamiyatini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

hozirgi o'zbek she'riyatida (XX asr oxiri – XXI asr boshlari) tashxis va tazodning qo'llanilish xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning an'anaviy tasniflaridagi muammoli o'rinlarni aniqlash va zamonaviy poetik amaliyotga mos funksional-semantik tasnifini ishlab chiqish;

hozirgi o'zbek she'riyatida tashxis san'atining an'anaviy tabiat tasviridan (gul, bulbul) mavhum falsafiy-psixologik tushunchalar ('xayol', 'xiyonat', 'sukunat') tashxisigacha bo'lgan tadrijiy rivojini tahlil qilish;

---

<sup>6</sup> Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. –Т.: Шарқ, 1998.

<sup>7</sup> Мирҳайдаров Ҳ. Тафаккур гавҳари. – Хўжанд: “Нури маърифат”, 2006.

<sup>8</sup> Ражабова Б. Ўзбек классик шеърӣятида тамсил санъати. Филол. фан. номз. дисс. – Т., 1996

<sup>9</sup> Афоқова Н. М. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар. Филол. фан. номз. дисс. – Т., 1997.

<sup>10</sup> Муллаҳўжаева К. А. Навоӣ ғазалиётда тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги... филол. фан. номз. дисс. –Т., 2005.

<sup>11</sup> Тўланова Н. М. Ҳозирги ўзбек шеърӣятида бадий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили... Филол. фан. номз. дисс. – Т., 2009.

<sup>12</sup> Мамажонов З. А. Ўхшатиш асосидаги шеърӣ санъатлар тавсифи ва таснифи. Фалс. док. (PhD) дисс. – Фарғона, 2017.

XX-XXI asr o‘zbek shoirlari (masalan, A.Qutbiddin, A.Said, V.Fayzulloh) ijodida “men-sen” munosabatidagi tazodning mumtoz adabiyotdagi “oshiq-ma’shuqa” an’anasidan “ijodkor-jamiyat”, “shaxs-taqdir” kabi falsafiy-psixologik ziddiyatlarga o‘tib o‘tganini (tadrijini) asoslab berish;

hozirgi she’riyatda tashxis va tazodning o‘zaro va boshqa badiiy san’atlar (masalan, istiora, nido, kinoya) bilan qorishiq holda qo‘llanilishini va yangi poetik obraz yaratishdagi rolini ochib berish.

**Tadqiqot obyekti.** Ushbu dissertatsiyada tashxis va tazod san’atlarining hozirgi o‘zbek she’riyatidagi tadrijini o‘rganish uchun asosan XX asr oxiri – XXI asr boshlarida faol ijod qilgan yetakchi shoirlar Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Vafo Fayzulloh kabi ijodkorlarning lirik asarlari tadqiqot obyekti sifatida belgilandi. Bu shoirlar ijodining tanlanishiga sabab, ularning she’riyatida mumtoz an’analar bilan birga zamonaviy badiiy tafakkurning o‘ziga xos sintezi kuzatilishi, tashxis va tazod san’atlarining an’anaviy qoliplardan chiqib, yangicha falsafiy-psixologik mazmun kasb etgani yaqqol namoyon bo‘lishidir. Tahlil jarayonida mavzuni kengroq yoritish maqsadida Erkin Vohidov, Usmon Azim, Xurshid Davron kabi boshqa zamonaviy shoirlar ijodidan ham ayrim misollar keltirildi.

**Tadqiqotning predmetini** mumtoz poetika masalalari, xususan, she’riy san’atlar haqidagi manbalarni o‘rganish tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Ish sinxron-tavsifiy usulda bajarildi. Ilmiy ishning tahliliy obyekti badiiy nutq bo‘lganligi sababli unda tarixiy-qiyosiy, struktural, psixologik, tasniflash, badiiy tahlil va tavsiflash usullaridan keng foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Tashxis san’atining mumtoz adabiyotdagi an’anaviy tasvir obyektlari (tabiat unsurlari, samoviy jismlar) doirasidan chiqib, hozirgi o‘zbek she’riyatida inson ruhiyati bilan bog‘liq mavhum-psixologik tushunchalar (xayol, xiyonat, sukunat) hamda ijtimoiy-maishiy detallar tasviriga ko‘chish jarayonidagi tadrijiy evolyustiyasi va yangilangan poetik funksiyalari ochib berilgan;

hozirgi o‘zbek she’riyati materiallarining qiyosiy tahlili asosida tashxis san’atining yangi tematik-funksional tasnifi (inson his-tuyg‘ulari, tana a‘zolari, moddiy borliq unsurlari va toponimlar tashxisi) ishlab chiqilgan hamda uning poetik obraz yaratishdagi tizim yasovchi (strukturoobrazuyuvchi) ahamiyati dalillangan;

tazod san’atining an’anaviy “oshiq-ma’shuqa”, “raqib-oshiq” kabi didaktik-lirik muqobillardan zamonaviy she’riyatdagi “men – sen” paradigmasi orqali “ijodkor – jamiyat”, “shaxs – taqdir”, “borliq – yo‘qlik” kabi falsafiy-ekzistensial ziddiyatlarni ifodalash vositasiga aylanish qonuniyatlari va kontekstual (nolug‘aviy) antonimlarning she’riy matndagi o‘rni asoslangan;

tashxis va tazod san’atlarining hozirgi she’riyatda o‘zaro hamda boshqa badiiy san’atlar (nido, istiora, kinoya) bilan sintezlashgan (qorishiq) holda kelishi natijasida ko‘p qatlamli, murakkab assotsiativ obrazlar va yangicha falsafiy mazmun yaratishdagi lingvopoetik imkoniyatlari isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Badiiy san'atlarning nazariy tavsiflarini tartiblash, ularni hozirgi nazariy tafakkur nuqtayi nazaridan funksional asosiga ko'ra tasniflash; obrazlilikni shakllantirishda va jilolantirishda tashxis va tazodning ahamiyatini isbotlash, o'quvchiga muayyan ta'sir o'tkazish maqsadlarida birdek xizmat qilishini dalillash; tashxis va tazodni struktural va funksional tahlil qilish adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan; tashxis va tazodning she'riy san'atlar tizimidagi o'rnini hamda vazifalarini tadqiq qilish bugungi kunda yosh avlod dunyoqarashi, tafakkurini shakllantirishda hamda jamiyatning axloqiy-estetik va ma'naviy-ma'rifiy takomilida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar tarixiy-qiyosiy, ba'zi o'rinlarda talqiniy, tavsifiy-tahliliy uslublar vositasida asoslanganligi bilan, xorij va respublika miqyosidagi jurnallarda bosilgan ilmiy maqolalar bilan, obyektga ilmiy yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi bilan, nazariy fikr va xulosalarning ilmiy manbalarga muvofiqligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyaning ilmiy xulosalari va tahliliy materiallaridan universitetlarning filologiya fakultetlarida "Hozirgi o'zbek adabiyoti", "Adabiyot nazariyasi", "She'rshunoslik" kabi fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tishda, zamonaviy shoirlar (A.Qutbiddin, A.Said, V.Fayzulloh va boshqalar) ijodini tahlil qilishga bag'ishlangan maxsus kurslar va seminarlar tashkil etishda metodik material sifatida qo'l keladi. Tashxis va tazodning tadrijiga oid xulosalar adabiyot tarixini o'qitishda an'ana va novatorlik masalalarini yoritishda foydalaniladi. Shuningdek, Akademik litseylar va umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida adabiyot darslarida hozirgi o'zbek she'riyati namunalarini tahlil qilishda, o'quvchilarga badiiy san'atlarning zamonaviy ko'rinishlarini tushuntirishda qo'shimcha material sifatida xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek she'riyati poetikasi, badiiy mahorat masalalari, zamonaviy shoirlar uslubiga bag'ishlangan keyingi ilmiy tadqiqotlar (magistrlik va PhD dissertatsiyalari, monografiyalar, ilmiy maqolalar) uchun nazariy-metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi bo'yicha yaratilajak darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalarning badiiy san'atlarga oid bo'limlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiyada olingan ilmiy natijalar quyidagicha amaliyotga joriy qilingan:

1. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan tashxis san'atining yangilangan tematik-funksional tasnifidan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirlida 2021-2022-yillarda bajarilgan "O'zbek tili (Davlat tili) fanidan adabiy o'qishni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish (umumta'lim maktablarining 10-11-sinflar darsligi asosida)" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasida (NukusPIning 2024-yil 21-maydagi №01-20-09/834

ma'lumotnomasi) keng foydalanilgan. Loyiha natijalari asosida "Adabiy o'qish (10-sinf...)" va "Adabiy o'qish (11-sinf...)" elektron nashrlari yaratilib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining DGU14919 va DGU14918 sonli guvohnomalari olingan.

2. Tadqiqotning tashxis va tazodning poetik obraz yaratishdagi ahamiyati hamda boshqa san'atlar bilan qorishiq qo'llanilishi haqidagi nazariy xulosalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasidagi 2021-2023-yillarda bajarilgan OT-FI-030 "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 30-apreldagi № 01/4-1789 sonli ma'lumotnomasi).

3. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan tashxis va tazodning yangilangan tematik tasniflari hamda ularning poetik mazmun ifodalashdagi xususiyatlariga oid tahliliy materiallardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" teleradiokanali" DM (27.05.2024. 02-12-321-ma'lumotnoma) "Siyrat", "Ziyo darg'alari" ilmiy-ma'rifiy ko'rsatuvlarida hamda "O'zbekiston" teleradiokanali" DM (31.05. 2024. 04-36-698- ma'lumotnoma) "Bedorlik", "G'azal bo'stoni", "Adabiy jarayon" eshittirishlari (2022-2024) ssenariysini tayyorlashda; "Mening yurtim"(My5) telekanalining (25.04.2025. 135/25- ma'lumotnoma) "O'zimizning gap", "Omon-omon", "Efirda To'raxonov" nomli ko'rsatuvlarda foydalanildi. Natijada ko'rsatuv va eshittirishlarning ilmiy-ma'rifiy jihatdan salohiyati ortishiga erishildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik darajalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Ilmiy ish kirish, 3 bob, umumiy xulosalar va adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotiga joriy qilinishi hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Ishning I bobi "**Tashxis va tazod san'atlarining o'rganilishi va hozirgi o'zbek she'riyatidagi tadqiqining nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanib, unda birinchi fasl "**Tashxis va tazod san'atlari tadrijining tarixiy-**

**nazariy ildizlari**” tarzida belgilangan. Badiiy san’atlarning nazariy tavsifi va tasnifi bo’yicha manbalardagi xato-kamchiliklar tahlil qilinib, ularning poetik asardagi o’rni, vazifalari hamda ahamiyatiga alohida e’tibor berildi. Bugungi kunda badiiy san’atlarni o’rganishga bo’lgan qiziqish ancha kuchaygan. Buning natijasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar, risolalar, maqola va qo’llanmalar yaratildi hamda bu mavzu adabiy ta’lim o’quv dasturlaridan o’rin oldi. Biroq mavjud qarashlarda har xillik, sezilarli tafovutlar kuzatiladi.

Tashxis va tazod kabi badiiy san’atlarning hozirgi o’zbek she’riyatidagi tadrijini o’rganish, avvalo, ularning tarixiy ildizlariga nazar tashlashni taqozo etadi. Ijtimoiy muammolarni ramziy-majoziy timsollar orqali ifodalashda badiiy san’atlarning o’rni qadimdan beqiyos bo’lgan. “Lison ut-tayr”, “Zarbulmasal” kabi asarlardagi majoziy obrazlar buning yorqin dalilidir. Mumtoz adabiyotimizning o’ziga xosligini, ta’sirchanligini ta’minlagan badiiy san’atlar S.Karimov ta’kidlaganidek, “badiiy ijod namunalarini bir qadar go’zal, jarangdor, ta’sirli qilib bayon etish zaruratidan kelib chiqadi”<sup>13</sup>.

Badiiy san’atlarning ilk nazariy asoslari Sharq poetikasida shakllangan. H.Boltaboyev ta’kidlashicha, “Badiiy san’atlar haqidagi dastlabki ilmiy risolalar johiliya davrida yoki ilk islom xalifalari zamonida shakllanganiga qaramay, bu san’atlar xalq zakovati va badiiy balog’atining belgisi sifatida qadimdan mavjud bo’lgan”<sup>14</sup>. Olimning qayd etishicha, Sharq mumtoz poetikasining shakllanishida Qur’oni karim va hadisi sharifdagi badiiy ifodalar muhim o’rin tutgan. Masalan, Ibn al-Mu’tazzning “Kitob ul-badi” asarida badiiy san’atlarga misol keltirish tartibi avval Qur’on (“Kalomulloh – kitoblarning onasi” – istiora), so’ng hadis (“Bilim qulfdir, savol kalitdir”), keyin xulafoyi roshidin so’zlari va shundan keyingina shoirlar ijodidan namunalar keltirish an’anasiga asoslangani aytiladi. Bu an’ana Nasr ibn Hasanning “Mahosin ul-kalom”, Qudama ibn Ja’farning “Naqd ush-she’r” kabi arab poetikasi asoschilari<sup>15</sup> asarlarida ham kuzatiladi va keyinchalik Ajam (fors-turk) adabiyotshunosligiga ham o’tadi. Jumladan, vatandoshlarimizdan Abu Abdulloh Xorazmiyning “Mafotih ul-ulum”ida, Yusuf Sakkokiyning “Miftoh ul-ulum”ida ham shu tartibga amal qilingan. Bu esa badiiy san’atlar, jumladan, tashxis va tazodning tarixiy ildizlari chuqur ekanidan dalolat beradi va ularning keyingi tadrijini o’rganish uchun asos yaratadi.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, xususan, O’rxun-Enasoy bitiklari, nafaqat tarixiy hujjat, balki yuksak badiiy tafakkur mahsuli sifatida ham katta ahamiyatga ega<sup>16</sup>. I.V.Stebleva ta’kidlaganidek, bu matnlardagi badiiy usullar tasodifiy emas, balki muayyan estetik tizimni tashkil etadi (Stebleva I.V. Poetika drevnetyurkskoy literatury... – S. 6.). Ushbu badiiy tizimning asosiy ustunlaridan ikkitasi – tazod (antiteza) va tashxis (jonlantirish) san’atlaridir.

<sup>13</sup> Каримов С. Ўзбек тилининг бадийи услуби... Филол. фан. номз. дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 218.

<sup>14</sup> Болтабоев Х. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 220.

<sup>15</sup> Наср ибн Ҳасан. Маҳосин ул-калом; Қудаман ибн Жаъфар. Нақд уш-шеър; Жохиз; Ибн Халдун; Абу Ҳилол Аскарый. Китоб ус-саноатайн; Ибн Рашик. Ал-Умда.

<sup>16</sup> Стеблева И. В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. – М.: Наука, 1976. – С. 1-5.

Tazod, ya'ni qarama-qarshi tushuncha, obraz yoki holatlarni bir-biriga zid qo'yish orqali fikrni kuchaytirish – qadimgi turkiy poetikaning eng keng tarqalgan badiiy usullaridan biridir. Bitiklarda tazod nafaqat uslubiy vosita, balki qadimgi turklarning dunyoqarashini, borliq haqidagi kosmologik tasavvurlarini ifodalovchi asosiy falsafiy-poetik priyom sifatida namoyon bo'ladi.

a) Kosmologik tazod. Eng yorqin va fundamental tazod "Osmon" va "Yer" o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu qarama-qarshilik deyarli barcha bitiklarda uchraydi va olam yaratilishi haqidagi mifologik tasavvurni aks ettiradi. Kultegin bitigi aynan shu tazod bilan boshlanadi: Üzä kök teñri asra yayız yer... Bu yerda Üzä kök teñri (yuqorida Ko'k Tangri) va asra yayız yer (pastda qo'ng'ir yer) bir-biriga nafaqat makon (yuqori/past), balki mohiyat (ilohiy/moddiy, osmon/yer) jihatidan ham qarama-qarshi qo'yilgan.

b) Ijtimoiy va holat tazodi. Tazod ijtimoiy tabaqalar (bägläri - beklari va buduny - xalqi) yoki xalqning ahvolini ifodalash uchun ham faol qo'llangan. Kultegin bitigida xoqonning faoliyati natijasida yuz bergan tub o'zgarishlar aynan tazod orqali yorqin ko'rsatilgan: ...čïyañ budun(u)γ bay qiltim, az budun(u)γ ük(ü)š qiltim... "Qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko'p qildim" Bu yerda čïyañ (qashshoq) – bay (boy)ga, az (oz) – ük(ü)š (ko'p)ga zid qo'yilgan. ...öl(ü)t(ä)yin yit(i)g(ä)n budun... (o'lay deb yitib borayotgan xalq) iborasi keyinchalik...tirip... (tirilib)<sup>17</sup> so'zi bilan zidlanib, davlatning qayta tiklanishi kuchli badiiy bo'yoqlarda tasvirlangan.

d) zamon va makon tazodi. Qahramonlarning tinimsiz faoliyati, davlat uchun qilgan mehnatlari ko'pincha kun va tun, sharq va g'arb qarama-qarshiligi orqali ta'kidlanadi: küntüz olurmadim, tünä uyumadim... Bu misrada küntüz (kunduzi) va tünä (kechasi) so'zlari zidlantirilib, xoqonning xalq uchun "kunduzi o'tirmay, kechasi uxlamay" mehnat qilgani bo'rttirib ko'rsatilgan. Xuddi shu tazod Tonyuquq bitigida ham uchraydi:...tünä-dä uyu[madim], küntüz-dä [olurmadim]... Ilg(ä)rü kün tuysiq(q)a... (Oldinda kun chiqishga...) va qury(i)γaru kün batsiq(q)ina... (orqada kun botishiga... Sharq (kün tuysiq) va G'arb (kün batsiq) ziddiyati orqali egallangan hududlarning kengligi, butun olamni qamrab olish g'oyasi ifodalangan.

Tashxis – jonsiz tabiat hodisalariga, mavhum tushunchalarga yoki makonlarga insoniy xususiyatlar, his-tuyg'u va harakatlarni yuklash san'atidir. Qadimgi turkiy bitiklarda tashxis, asosan, tabiat bilan bog'liq matnlarda uchraydi va qadimgi animistik (borliqni jonli deb bilish) dunyoqarash izlarini o'zida saqlaydi<sup>18</sup>.

a) Yer-suv va O'tuken tashxisi. Bitiklarda Vatanning umumlashma obrazi bo'lgan Jer-Sub (Yer-Suv) va poytaxt joylashgan Ötükän jyš (O'tuken o'rmoni) shunchaki geografik obyektlar emas, balki xalq taqdirini hal qiluvchi, g'alaba "beruvchi", irodali, ilohiy kuchlar sifatida tasvirlanadi. To'nyuquq bitigida bu yaqqol ko'rinadi: Teñri umay iduq yer sub basa berti... "Tangri, Umay,

<sup>17</sup> Раҳмонов Н. Қадимги туркий тил. – Т.: Фан, 2009. – Б. 71.

<sup>18</sup> Стеблева И. В. Поэтика древнетюркской литературы. М.: Наука, 1976. – С. 24.

muqaddas Yer-suv (g'alabani) bosib berdi (ya'ni, g'alabaga erishishga yordam berdi)" Bu yerda vJer-sub (Yer-suv) Tangri va Umay bilan bir qatorda g'alabani ta'minlovchi faol, shaxslantirilgan ilohiy kuch sifatida kelmoqda.

b) Mavhum tushunchalar tashxisi. Tashxisning yana bir yorqin ko'rinishi mavhum tushunchalarga (dard, qayg'u) nisbatan qo'llanilishidir. Ular xuddi inson yoki biror mavjudotdek "keluvchi", "hujum qiluvchi" kuch sifatida tasvirlanadi: qadyu kälti, saqynč kälti. "Qayg'u keldi, o'y-tashvish keldi". Bu misolda qadyu (qayg'u) va saqynč (tashvish) kabi hissiy holatlar go'yo tashqaridan bostirib "keluvchi" (kälti) dushmanlardek shaxslantirilgan. Bu qadimgi turklarning inson ruhiy holatlarini ham jonli kuchlar sifatida tasavvur qilganidan dalolat beradi.

Qadimgi turkiy bitiklar matnidagi tazod va tashxis san'atlari shunchaki badiiy bezak emas, balki o'sha davr insonining borliqni idrok etish usulidir. Tazod ularning olam tuzilishi (Osmon va Yer), hayot tarzi (kun va tun, sharq va g'arb) va ijtimoiy munosabatlari (boy va qashshoq) haqidagi tasavvurlarini tartibga solgan. Tashxis esa ularning tabiat bilan (O'tuken, Yer-suv) va o'z ichki dunyosi (qayg'u, tashvish) bilan bo'lgan jonli, bevosita muloqotini aks ettirgan. Bu badiiy usullar keyingi davr turkiy she'riyatining, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyoti poetikasining shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratgan.

Tashxis va tazod san'atlarining o'zbek adabiyotidagi ilk tadrijiy bosqichini XI asrga oid yozma manbalarda kuzatish mumkin. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" va Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlarida bu san'atlarning dastlabki namunalari uchraydi. "Devonu lug'otit-turk"dagi she'riy parchalar va maqollarda, jumladan, tashxis (jonlantirish), intoq (nutq ato etish) va tazod (zidlash) kabi san'atlarning sodda, ammo ifodali ko'rinishlari mavjud.

Tashxis va tazod san'atlarining tadrijida Alisher Navoiy ijodi alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir bu san'atlarning badiiy imkoniyatlarini yuksak darajaga ko'tardi, ularni shunchaki shakliy bezak emas, balki chuqur mazmun ifodalash vositasiga aylantirdi. Navoiy g'azallarida tazod ba'zan butun g'azalning asosiy badiiy-falsafiy yukini tashiydigan vositaga aylanadi<sup>19</sup>. Masalan, tun va tong motivli g'azalida shoir oshiqning hijroni (*firoq*) va ma'shuqaning visoli (*visol*) o'rtasidagi ziddiyatni, shuningdek, yorning zulfı (*zulf* – qora, tun) va yuzi (*yuz* – yorug', tong) qarama-qarshiligini butun g'azal davomida tazod san'ati orqali mahorat bilan ifodalaydi.

Tazod san'ati xalq og'zaki ijodida ham keng qo'llanilganini ta'kidlash lozim. Maqollarda<sup>20</sup> (*yaxshi* - *yomon*, *mard* - *nomard*, *bor* - *yo'q*); qo'shiqlarda (*kunda-kunda* - *oyda-yilda*)<sup>21</sup> va dostonlarda (*mard* - *nomard*, *baxil* - *saxiy*)<sup>22</sup> (Masalan, qarang:) tazod hayotiy tajribani umumlashtirish, xarakterlarni taqqoslash va badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

<sup>19</sup> Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – В. 63.

<sup>20</sup> Ўзбек халқ мақоллари / Тўпловчи Т. Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 2005. – В. 167.

<sup>21</sup> Ўзбек халқ кўшиқлари / Тўпловчи М. Алавия. – Тошкент: Ғ. Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – В. 49.

<sup>22</sup> Алпомиш / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Шарқ, 2003. –В.47.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, mumtoz adabiyot va folklorda tashxis va tazod san'atlari nafaqat badiiy bezak, balki chuqur mazmun ifodalash<sup>23</sup>, ruhiy holatlarni tasvirlash va falsafiy mushohadalarni bayon etishning muhim vositalariga aylangan. Ular yaratgan badiiy an'analar hozirgi o'zbek she'riyatidagi tadrij uchun mustahkam zamin yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek mumtoz she'riyatida tashxis va tazod san'atlarining qo'llanilishi ularning chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu san'atlarning ilk namunalari Qur'oni Karim, hadislar va xalq og'zaki ijodida uchraydi, XI asr yozma yodgorliklarida esa faol qo'llana boshlagan. Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari kabi manbalarda ularning nazariy jihatlari ham o'rganilgan.

Bobning ikkinchi fasli "**Badiiy san'atlarni o'rganishning nazariy jihatlari va tasniflash muammolari**" deb nomlangan. Avvalo, she'r san'atlari she'rni shakllantirib, mazmuniga bog'langan holda go'zal ifodalar yaratishdek muhim vazifani bajarish bilan birga so'z ma'nosiga, so'z shakliga alohida-alohida, ba'zan bir vaqtning o'zida ham ma'noga va shaklga ta'sir ko'rsata olish xususiyatiga ega. Aynan ana shu xususiyatlariga ko'ra ular bir qancha guruhlarda tasniflab o'rganiladi.

Hozirgacha badiiy san'atlar A.Husayniy, Y.Is'hoqov, V.Rahmonov, A.Hojiahmedov, T.Boboyev, Z.Mamajonovlar tomonida turli aspektlarda tasniflangan. Biz bugungi zamonaviy she'riyatimizda qo'llanilayotgan badiiy san'atlarni ilmiy-nazariy jihatdan nisbatan kengroq tasniflangan Y.Is'hoqov va Z. Mamajonovlar tasnifini qiyosan o'rganib chiqdik va ulardagi e'tiborga sazovor joylarini ijobiy baholadik. Yuqorida nomlari keltirilgan musanniflar tasniflaridan ilmiy tajriba o'rganib, o'z nuqtayi nazarimizdan kelib chiqqan holda, mavzuni chuqurroq o'rganishda qulaylik tug'dirishi uchun badiiy san'atlarni funksional asosiga ko'ra quyidagicha tasniflashni ma'qul topdik:

**1. O'xshatishga asoslangan san'atlar:** intoq, istiora, irsoli masal, laff va nashr, talmeh, tashbeh turlari, tashxis, tamsil, tazod, tafsir, tafri', tansiq us-sifot, husni ta'lil. Bu guruhga kirgan san'atlar yana kichik guruhlarga ajratilib izohlanishi mumkin: a) shaxslantirib o'xshatish: tashxis, intoq; b) qarshilantirib o'xshatish: tazod, muqobala; d) dalillash va isbotlash orqali o'xshatish: husni ta'lil, tamsil;

e) izohlash va sharhlash orqali o'xshatish: laff va nashr, tafsir; f) omonatga olib o'xshatish: istiora; i) ishora asosida o'xshatish: talmeh.

**2. So'z takroriga asoslangan san'atlar:** ishtiyoq, mukarrar, qaytarish turlari, tasdir, tasbe', raddul matla', takrir, tarji', tardu aks, tas'hobih ul-atrof.

**3. Ma'noni ta'kidlash, kuchaytirishga asoslangan san'atlar:** iyg'ol, mubolag'a (tablig', ig'roq, g'uluv), nido, ruju, takmil, tafrit, tajrid.

**4. Turli ifoda usullariga asoslangan san'atlar:** iltifot, istitrid, istifhom, mazhabiy kalomiy, mutazalzil, tajohuli orif, tazyil, tatmum, tafsir.

---

<sup>23</sup> Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. –В. 64.

**5. So‘z va shakl o‘yinlariga asoslangan san’atlar:** baroati istihlol, iyhom, ittifoq, mudavvar, musoviyat tarafayn (murabba’, masnu’), mushajjar, mujovaza, maqrul- lug‘utayn, muqatta’, tajnis, talavvun, tavshih, tahakkum, tag‘yir, shibhi ishtiqoq.

**6. Qofiya bilan bog‘liq san’atlar:** e‘not iyto, irsod, izdivoj, mumosala, mutarraf, saj, tarse’, tajziya, tashtir, tasri’, tashri’, tajnisli qofiya, tarmih, tavsım, tasmit.

**7. Uslubiy mutanosiblik va matnlararo aloqa asosidagi san’atlar:** iqtibos, jam’, jam’u tafriq, jam’u taqsim, tafriq, tanosub, tazmin.

**8. Murakkab san’atlar:** ibhom, muammo, muaqqad, kitobat, ta’rix, hijoi huruf, jam’i huruf, tajnisli xat.

Albatta, taklif etilayotgan bu tasnif ham mutlaq mukammallikka da’vo qilmaydi va unda ham bahsli o‘rinlar (masalan, tazodning o‘xshatish guruhiga kiritilishi) bo‘lishi tabiiy. Biroq, ushbu tadqiqot doirasida tashxis va tazod san’atlarini funksional jihatdan o‘rganishda shunday tasniflash ma’lum qulayliklar yaratdi. Guruhlarni nomlashda avvalgi tadqiqotchilar (xususan, Z.Mamajonov) tajribasiga tayanildi. “Qofiya bilan bog‘liq san’atlar” guruhining nomlanishi esa A.Hojiahmedovning “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya” asaridagi “qofiya san’atlari” tushunchasiga asoslandi.

Badiiy san’atlarni tasniflashdagi muammolarni hal etishda ularga nisbatan funksional yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv san’atlarni shunchaki ro‘yxatga olish yoki formal guruhlash o‘rniga, ularning badiiy muloqotni amalga oshirishdagi roli va vazifasi nuqtayi nazaridan qarashni taqozo etadi. V.M.Jirmunskiy ta’kidlaganidek, “Jiddiy tahlil u yoki bu badiiy san’atni qayd etish bilan cheklanmasdan, o’sha san’atning estetik funksiyasi, mohiyati, ayni shu san’at nimani ifodalayotganini tushunishni nazarda tutadi”<sup>24</sup>.

She’riy san’atlarning asosiy estetik vazifalariga tasvirlanayotgan hodisaning ta’sirchanligini kuchaytirish, o‘quvchida hayrat va zavq uyg‘otish, manzarani ko‘z oldida gavdalantirish, poetik mazmunni chuqurlashtirish va badiiy qiymatni oshirish kabilar kiradi. Aynan mana shu funksiyalar nuqtai nazaridan yondashish badiiy san’atlarning mohiyatini chuqurroq anglashga va ularni tasniflashda aniqroq mezonlarni belgilashga yordam beradi.

Qayd etish lozimki, Z.Mamajonov an’anaviy uch guruhli tasnifni (lafziy, ma’naviy, mushtarak) tanqid qilib, “san’atlarni lafziy, ma’naviy va lafziy-u ma’naviy san’atlar sifatida tasniflash hozirgi adabiy-nazariy tafakkur nuqtayi nazaridan o‘zini oqlamaydi”<sup>25</sup> degan xulosaga keladi. Nazariy jihatdan bu fikrda jon bor. Biroq, bizningcha, ta’lim jarayonida, mavzuni dastlabki o‘zlashtirish bosqichida an’anaviy uch guruhli tasnif o‘zining soddaligi va ko‘rgazmaliligi bilan ma’lum qulayliklarga ega. Amaldagi ko‘pgina darslik va qo‘llanmalar ham aynan shu tasnifga asoslanadi. Shu bilan birga, chuqur ilmiy tadqiqotlar uchun Z.Mamajonov taklif etgani kabi funksional yoki genetik asosdagi tasniflar samaraliroq bo‘lishi mumkin.

<sup>24</sup> Жирмунский В. М. Введение в литературоведение. Курс лекций. – М.: Эдиториал УРСС, 2004. – С. 425.

<sup>25</sup> Мамажонов З. Ўхшатиш асосидаги шеърій сан’атларнинг назарий тавсифи ва таснифи. Фалсафа фанлари доктори (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2017. – Б. 19.

Z.Mamajonov T.Boboyevning tasnifini ham tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, T.Boboyev she'riy badiiyatni troplar, san'atlar va figuralarga ajratib, "masalani metodik tomondan ko'rgani uchun uning o'qitishga moslangan tasnifi... nazariy jihatdan to'g'ri emas", chunki bunda tashbeh, tashxis, istiora kabi asosiy san'atlar troplar sifatida alohida guruhga chiqarib yuborilgan<sup>26</sup>.

Ko'rinadiki, badiiy san'atlar tasnifi borasida hanuz yagona yondashuv mavjud emas. Turlicha qarashlarni umumiy maxrajga keltirish, atamalarni standartlashtirish, aniq va ilmiy asoslangan tasniflarni ishlab chiqish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardandir. Ayniqsa, ta'lim tizimi uchun mo'ljallangan darslik va qo'llanmalarda aniq, izchil va zamonaviy ilmiy yondashuvlarga asoslangan tasniflarning berilishi muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, badiiy san'atlarning mohiyati, ularning til imkoniyatlari bilan bog'liqligi, tarixiy manbalardagi nomlanish va tasniflashdagi xilma-xilliklar, janr va she'riy elementlar bilan munosabatidagi noaniqliklar, shuningdek, bir badiiy birlikda bir necha san'atning qorishib kelishi kabi masalalar ularni tasniflashda jiddiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Bu muammolarning yechimi badiiy san'atlarni yanada chuqurroq va tizimli o'rganishni taqozo etadi.

Ishning II bobi "**Tashxis va poetik obraz**" deb nomlanib, unda birinchi fasl "**O'zbek she'riyatida tashxisning tematik tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlangan.

Birinchi bobda ko'rib o'tilganidek, tashxis san'ati o'zbek adabiyotida qadimdan mavjud bo'lib, mumtoz she'riyatda, asosan, tabiat hodisalari, jonzotlar va sayyoralarni insoniylashtirish orqali ma'shuqa jamolini tasvirlash yoki falsafiy mushohadalarni ifodalashga xizmat qilgan. Hozirgi o'zbek she'riyati namunalarini kuzatish esa, bu san'atning an'anaviy qoliplardan chiqib, mavzu doirasi kengayganini va yangicha badiiy funksiyalar kasb etayotganini ko'rsatadi.

Xususan, tadqiqot obyekti sifatida belgilangan Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Vafo Fayzulloh kabi zamonaviy shoirlar ijodida tashxis endi nafaqat tabiat unsurlariga (gullar, o'simliklar, hayvonlar, qushlar, sayyoralar, tabiat hodisalari, moddalar, daryolar, daraxtlar), balki predmetlarga (kitob, qog'oz), inson a'zolariga (ko'z, yurak), mavhum tushunchalarga (hislar, tuyg'ular, orzu-umidlar) va hatto toponimlarga (shaharlar) nisbatan ham faol qo'llanilayotgani aniqlandi. Bu holat tashxis san'atining tadrijini (evolyutsiyasini) to'liqroq tadqiq qilish uchun uni mavzu (obyekt) jihatidan yangicha tasniflashni taqozo etadi.

Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotda hozirgi o'zbek she'riyatidagi tashxis san'atining qo'llanilish doirasi kengayganini hisobga olgan holda, uni quyidagi tematik-funksional guruhlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq deb topildi (quyida o'sha 12 bandlik ro'yxat va diagramma keltiriladi):

1) Gullar va o'simliklar tashxisi: *atirgul yig'lashi, g'uncha jilmayishi;*

---

<sup>26</sup> Мамажонов З. Ўхшатиш асосидаги шеърлий сан'атларнинг назарий тавсифи ва таснифи. Фалсафа фанлари доктори (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2017. – Б. 10.

- 2) hayvonlar va qushlar tashxisi: *qushlar xabarchi, bulbul kuylashi*;
- 3) sayyoralar tashxisi; *quyoshning sochlari, oyning tushi, yulduz qarashi*;
- 4) predmetlar tashxisi; *oq qog'ozga dard aytish, kitob bilan do'stlashish*;
- 5) tabiat hodisalari tashxisi; *osmon yig'lar, shamolning o'ynashi*;
- 6) inson his-tuyg'ulari tashxisi; *hayajonning o'ldirilishi, dard yig'lashi*;
- 7) orzu-umidlar tashxisi; *umidning daldasi, sevgi yoshlari; armon tug'ishi*;
- 8) inson a'zolari tashxisi; *ko'zlarning qochishi, aldashi, yurak yig'lashi*;
- 9) moddalar tashxisi; *bulutlarning tush ko'rishi; qorning kuylashi*;
- 10) daryolar tashxisi; *Amu cho'miltirishi, ikki daryo kokil yuvishi*;
- 11) daraxtlar tashxisi; *daraxtlarning qo'l ushlab olinishi, qo'l uzatishi, shiviri*;
- 12) toponimlar tashxisi: *Toshkent quchoq ochishi, Xivaning nolasi*.



Albatta, taklif etilayotgan bu tematik-funksional tasnifni yanada kengaytirish va mukammallashtirish mumkin. Biroq, ushbu tadqiqot doirasida bunday guruhlash tashxis san'atini hozirgi o'zbek she'riyatidagi qo'llanilish ko'lamini, uning an'anaviy obrazlardan qanday yangi ma'no va vazifalar tomon rivojlanayotganini – **tadrijini** kuzatishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, tashxis san'atini poetik obraz yaratishdagi imkoniyatlarini kengroq namoyon etadi. Zero, tashxis orqali **inson sezimlarini tabiat, hayvonot hamda samoviy jismlar uyg'unligini** yaqqol ko'rish, tasvirlash va tushunish imkoni tug'iladi, jonsiz predmetlarga insoniy hislar berish orqali ijodkor **o'z his-tuyg'ulari, qalb g'alayonlari va hayratlarini... oshkor etishi, sirlarini ochishi hamda o'quvchini rom etishi** osonlashadi.

Mumtoz she'riyatda **gul (ayniqsa atirgul) va bulbul** timsollari oshiq va ma'shuqa munosabatlarning ramziy ifodasi sifatida barqaror motivga aylangan<sup>27</sup>. Hozirgi shoirlar ham bu an'anaviy obrazlarga murojaat qilishadi, biroq ularga yangicha ma'no yuklash, kutilmagan vazifalar berish orqali tashxis san'atini tadrijini namoyon etadilar. Masalan, Aziz Said she'rida an'anaviy timsollar boshqacha qiyofa kasb etadi:

Atirgul may tashir – mulozim,

<sup>27</sup> Бекмирзаева Х. Гул ва булбул // Ziyo.uz. 2011 йил, 24 август.

Sipohisi sozanda qushlar<sup>28</sup>.

Bu misralarda an'anaviy "ma'shuqa" ramzi bo'lgan atirgul endi **may tashuvchi mulozim**ga, oshiq bulbul emas, balki umuman qushlar esa **sipohi sozandalarga** qiyoslanib shaxslantirilgani ohorli topilmalardan sanaladi. Bu yerda tashxis an'anaviy ishqiy mazmundan chekinib, ko'proq bazmiy yoki saroy hayotiga xos manzarani yaratishga xizmat qilmoqda. Atirgulning qizil rangi mayga, qushlarning sayrashi musiqaga o'xshatilishi orqali yaratilgan bu obrazlar shoirning **individual tasavvuri va badiiy mahoratidan** dalolat beradi. Bu tashxisning an'anaviy ramziylikdan **yangicha, kutilmagan assotsiatsiyalar** yaratish tomon tadrijini ko'rsatadi.

Bobning ikkinchi fasli "**Tashxis ramziy- majoziy obraz yaratish usuli sifatida**" deb nomlangan. Bobda tashxis poetik obraz yaratishda muhim vositalardan biri ekanligi ta'kidlanib, uning bu boradagi badiiy imkoniyatlari o'rganildi. Zamonaviy she'riyatimizda tashxis asosida yaratilgan betakror poetik timsollar tahlili ko'rsatildi. Tashxisning boshqa she'riy san'atlarni (husni ta'lil, tajohuli orif, tazod) shakllantirishdagi faol o'rni, o'xshatish, nido, istiora kabi san'atlar bilan birga qorishiq qo'llanilishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Y.Is'hoqov kitobida tashxis "ramziy o'xshashlikka asoslanishi" aytilsa, A.Ho'jiahmedov esa "tashxis san'ati tashbih uchun asos" ekanligini ta'kidlagan. Z.Mamajonov bir qarashda ikkala fikr ham asoslidek ko'rinishi haqida mulohaza yuritadi: "Aslida masalaga tarixiy (diaxroniya) aspektida qaraganda o'xshatish tashxisning asosidir, e'tibor hozirgi holat (sinxroniya) bilan chegara olib olingan tashxis o'xshatishning asosidir. Tashxis o'zida obrazli tafakkur izlarini saqlaydi va badiiy shartlilikka asoslanadigan usul, obraz sifatida qabul qilinadi." Hozirgi zamonaviy she'riyatdagi qo'llanilgan tashxislar o'xshatishga asos bo'lganligini keltirilgan misollar tasdiqlaydi. Gul ochildi gapida ochildini jilmaydi, yig'ladi cўzларига almashtirsakkina, gul shaxsga nisbatan ishlatiladi, jonlantiriladi. So'z shaxslashtirilmaguncha, o'xshatish ham, poetik tasvir ham yuzaga kelmaydi. Hozirgi o'zbek she'riyatimizdagi vazn, janr, shakl, mazmun va poetik obraz yaratish usullaridagi yangilanish o'tgan asrning 20–30-yillarida faoliyat olib borgan jadid adabiyoti namoyandalari ijodida kuzatiladi. Buni Cho'lpon she'riyati misolida ko'rish mumkin. U mumtoz she'riyatda an'anaviy gul, bulbul, tikan obrazlari oshiq, ma'shuqa va raqib ma'nosini ifodalagan bo'lsa, Cho'lpon lirikasida ular istibdod iskanjasidagi millat, uning dardiga malham qo'ymoq istagan vatanparvar va xalq boshiga adadsiz kulfatlarni yog'dirayotgan mustabid tuzum uchligi tarzida talqin etilgan. Cho'lpon boshlagan yangilanish an'anasini keyingi avlod shoirlari davom ettirib, she'riyatimizda bir qator yangi poetik obrazlar yaratishdi. Misol uchun birgina oy obrazini oladigan bo'lsak, oy "Qutadg'u bilig"da – davlat, Bobur lirikasida – vatan va bir qator shoirlar lirikasida go'zal yor, ma'shuqa timsoli sifatida gavdalansa, keyinchalik hiylagar (H Olimjon), oyna (Asqad Muxtor), ilhom parisi, enaga, sirdosh do'st (Oy yig'lar yo'rgaklab tunda to'kilgan daraxtning ismsiz bolalarini. Aziz Said), yo'l ko'rsatuvchi mayoq (Vafo Fayzulloh), ona (Xurshid Davron), ko'ngil (Oydan

<sup>28</sup> Aziz Said. Dili qani bedilning? – T.: Yozuvchi, 1996. – B. 27.

taralmoqda zafar tarona, Abduvali Qutbiddin) kabi poetik timsollar sifatida tasvirlanadi. “Obrazli qilib aytilgan so‘z kishi ruhini o‘ziga bo‘ysundiradigan holat kasb etadi.”<sup>29</sup> Shuning uchun bo‘lsa kerak ayrim she‘rlarni xuddi o‘zimizning qalb torlarimiz chertayotgan nolalarday qabul qilamiz va tezda yod olamiz. Shu bilan birga bitta she‘r bilan ham uning ijodkorini g‘oyibona yaxshi ko‘rib qolamiz. Tasavvurimizda o‘sha shoir siymosi o‘zi yaratgan obrazlar, obrazli lavha-manzaralar kabi yorqin gavdalanib, ongimizda muhrlanib qoladi.

“Obraz – bu ijodkor badiiy-estetik quvvatining qaymog‘i. Obraz shunday kuchga egaki, unga vaqtning, rasm-rusumning ta‘siri deyarli sezilmaydi. Boshqacha aytganda, zamonlar, dunyoqarashlar va qadriyatlar o‘zgarib boraveradi. Lekin chinakam poetik obraz keng ma‘noda ana shu evrilishlarga bo‘yin bermaydi.”<sup>30</sup> Shuning uchun ham badiiy uslubning asosiy signal so‘zi ham fikrni obrazli bayon etishdir. Har qanday obrazning o‘ziga xos ma‘naviy va tarbiyaviy-estetik jihatlari bo‘ladi. Ana shu jihatlari orqali o‘quvchining ongi ma‘naviy ozuqa oladi, ruhiyati poklanib, dunyoqarashi kengayadi. Shuning uchun poetik obraz bizni badiiyatga, go‘zallikka bo‘lgan ishtiyoqimizni yanada kuchaytiradi.

Poetik obraz o‘z-o‘zicha yashamaydi. U badiiy g‘oya va ko‘pdan ko‘p badiiy detallar bilan birgalikda muayyan uzilmas halqani tashkil etadi. Poetik obraz yaratishda shoir mahoratini namoyon etgan holda bir necha badiiy san‘atlardan o‘rinli va unumli foydalanadi. Shu o‘rinda shoir Aziz Saidning “Tungi hikoya” she‘ri tahlilini misol tariqasida keltiramiz.

Zamonaviy usulda yozilgan ushbu she‘rda tabiat va samovot jismlari orqali ramziy-majoziy timsollar yaratilganini ko‘ramiz. Ijodkor tafakkur olamining kengligi, ramziy-majoziy obrazlar, hayratomuz ifodalar orqali go‘zal lirik asar yaratilganiga va yana bir bor so‘z qudratiga, uning cheksiz imkoniyatlari mavjudligiga guvoh bo‘lish mumkin:

Tun qora aroba yulduz tashiydi,  
Ortidan qolmaydi tilamchi shamol.  
Chigirtka jar solar – oling noyob mol,  
Kelinchak daraxtlar oshadi devol.<sup>31</sup>

Tunda bedor qalb (lirik qahramon qalbi!) hissiyotlarining jilvalanishi, pok tuyg‘ularga, ezguliklarga to‘la qalbning to‘lg‘oqlaridan bunyod bo‘lgan “yangi chaqaloq” – she‘rning yaratilishi tasviri mohirona ifodalangan.

Bir qarashda qora aroba – qora qalam, u yozayotgan so‘zlar-yulduzlarmasmikan deb o‘ylab qolish ham mumkin. Birinchi misraning o‘zidanoq qandaydir arava yetaklayotgan odam surati ko‘z oldimizda gavdalansa, keyingi misralar suratni yanada boyitib, mukammallashtirib boradi. Ijodkor ikki xil san‘atdan unumli foydalanganligi yaqqol ko‘rinadi. So‘z orqali chizilgan portret. O‘quvchi she‘rni o‘qigan sari portretidagi oq-qora ranglar uyg‘unlashib asar mazmuni ochilib, oydinlashib boradi. Lirik asarda lirik qahramon o‘z ruhiy olamidagi kechinmalariga o‘quvchini manzara-lavhalar orqali oshno etadi:

<sup>29</sup> Ибн Сино. Шеър санъати. – Т. : Фафур Фулом, 1980. – Б. 47.

<sup>30</sup> Улуғбек Ҳамдам. Рухни уйғотувчи сўз. – Т. : Турон zamin ziyo, 1997. – Б. 42.

<sup>31</sup> Азиз Саид. Вақт манзили. – Т.: Akademnashr, 2021. – Б. 224.

Savdogar bu osmon so‘rar daraxtdan  
Ko‘ylagi yashirgan olmalarini.  
Oy yig‘lar yo‘rgaklab tunda to‘kilgan,  
Daraxtning ismsiz bolalarini.

“Obrazning kuchi, jozibasi yana shundaki, u shoir ifodalamoqchi bo‘lgan fikr, his-tuyg‘u va kechinmani ma’no jihatidan tovlantirib beradi”<sup>32</sup>. Yuqoridagi she’rda xuddi shunday so‘zning ma’no jilolanishi estetik zavq hamda ta’sirchanlik xususiyatiga ega.

She’rda tun obrazi mahorat bilan yaratilgan. Arava ham, aravakash ham – tun. Qop-qora aravada habash aravakash yulduz tashiydi. Yulduz tashiyotgan aravakash zim-ziyolikdan ko‘rinmaydi, aravaning harakatlanishidan va uning yulduzlarga to‘laligidan aravakash ham qop-qora libosda va o‘zi ham qora tanli ekanligini zukko o‘quvchi anglab olishi uncha qiyin emas. Yodimizga darhol o‘zbek xalq ertaklaridagi tunda qaroqchilarning saroy xazinasidagi oltin-kumush va dur-u javohirlarni o‘marishi epizodi tushadi va tun ijodkorning o‘y-xayollarini o‘g‘irlyotgan qaroqchiga qiyoslanayotgani ma’lum bo‘ladi.

Ikkinchi misrada ortidan qolmaydi tilamchi shamol misrasida yulduzlardan berishini tilanayotgan shamol obrazi kiritilgan. Aravakashdan dur so‘rayotgan tilamchi shamol go‘yo qaroqchilarning o‘g‘riligiga guvoh shaxs, unga ham yulduzlardan (dur-javohirlardan) berishmasa, ularni sotishini aytmoqchiday ko‘rinadi.

Tilamchi shamol – orzu-istaklar timsoli. Ular doim so‘z tashiyotgan ilhom parilarining ortidan chopishi, chigirtkaning jar solishi, kelinchak daraxtlarning devor oshib qarashi orqali she’rda sirli ohang, betakror tasvir va mukammal ramziy-majoziy obrazlar galereyasi yaratilgan desak o‘rinli bo‘ladi.

Badiiy san’atlar tizimida faol qo‘llaniladigan san’atlardan biri sifatida tashxis she’riy san’atlar tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu san’at imkoniyatlari orqali lirik asarlarda ramziy-majoziy obrazlar yaratiladi, emotsional his-tuyg‘ular kuchaytirilib, ta’sirchanlik, sirlilik qirralari oshiriladi, badiiylikni yuzaga keltirishda muhim rol o‘ynaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Hozirgi o‘zbek she’riyatida tazod san’atining tadriji va badiiy-uslubiy vazifalari”** deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli **“Tazodning an’anaviy talqindan zamonaviy psixologik-falsafiy talqingacha tadriji.”** tarzida belgilangan. Baytda ma’no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llash san’ati tazod deyiladi. She’riyatimiz tarixiga nazar solsak, ilmiy badi’ga oid manbalarda tazod san’ati turli nomlar bilan nomlanganligi qayd etilgan. Umar Rodiyoniyning “Tarjimon ul-balog‘a” (XI asr), Toj al-Halaviyning “Daqoyiq ush-she’r” (14-asr), Sharafiddin Romiyning “Haqoyiq ul-hadoyiq” (14-asr) asarlarida *mutazod*, Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr” (12-asr), Aḥmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” (1436-1437), Ḥusan Voiz Koshifyning “Badoyi’ ul-afkor” (15-asr) asarlarida *al-mutazod*, Shams Qays Roziyning “Al-Mo‘jam” (1218-1233), Hamididdin Najotiyning “Risolayi feruziy” (14-asr), Ibn Sino “She’r san’ati”, Xalil ibn

<sup>32</sup> Улуғбек Ҳамдам. Рухни уйғотувчи сўз. – Т. : Турон замин зиё, 1997. – Б. 44.

Ahmad, Atoulo Husayniy asarlarida *mutobiqa*, Shams Faxriy Isfahoniyning “Me’oriy Jamoliy” asarida esa *al-ittizod*, “Aruzi Humoyun”, “Jam’i muxtasar”, “Ilmi badi’ dar zaboni forsiy” kabi asarlarda *tazod* istilohlari bilan berilgan. “Tazodning ta’rifi masalasida barcha mualliflarning fikri bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Masalan, Rashididdin Vatvotda “bu san’at shundan iboratki, kotib yoki shoir nasr yoki nazmda (ma’no jihatidan) bir-biriga zid bo’lgan so’zlarni keltiradi: issiq va sovuq, yorug’ va qorong’i, qo’pol va nozik, qora va oq kabi.” “Aruzi Humoyun”da: “Taboq yoki tazod shuki, so’zlovchi o’z gapida ma’no jihatidan bir-biriga zid bo’lgan so’zlarni zikr etadi.”

Birinchi bobda tahlil qilinganidek, tazod san’ati o’zbek adabiyotida qadimdan mavjud bo’lib, xalq og’zaki ijodidan (“yaxshi-yomon”, “bor-yo’q”) tortib, mumtoz she’riyat cho’qqilarigacha (Navoiy, Bobur) chuqur falsafiy va badiiy-estetik vazifalarni bajargan. Mumtoz she’riyatda tazod asosan *oshiq-ma’shuqa (men-sen)*, *zulf-yuz* (qora-oq), *visol-hijron* kabi an’anaviy badiiy ziddiyatlar orqali falsafiy-didaktik mazmuni ifodalashga xizmat qilgan.

Hozirgi o’zbek she’riyatida esa bu san’atning tadriji kuzatiladi. Zamonaviy shoirlar ijodida (A.Qutbiddin, A.Said, V.Fayzulloh) tazod an’anaviy ishqiy mavzulardan kengayib, ko’proq lirik qahramonning ichki ruhiy ziddiyatlarini, shaxs va jamiyat, inson va taqdir, borliq va yo’qlik o’rtasidagi falsafiy-ekzistensial qarama-qarshiliklarni ifodalashning yetakchi badiiy usuliga aylandi. Bu bobda tazod san’atining hozirgi she’riyatda ana shunday yangicha poetik mazmun va obraz yaratishdagi o’ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Yangi o’zbek lirikasida boshdan oxir tazod san’ati asosiy vosita sifatida yozilgan dilbar she’rlar yaratilgan. Shunday she’rlardan biri sifatida Vafo Fayzullohning “Uch jazo” she’rini misol tariqasida tahlil qildik. She’r uch banddan iborat bo’lib,  $4 + 5 = 9$  shaklida turoqlangan barmoq vaznida yozilgan.

Beomon qish meni siyladi,  
Lolalarni chiqdim tush ko’rib.  
Nahot bahor endi qiynaydi,  
Dorga tortar ismim xush ko’rib... (5.9; 47-b.)

She’rning har bandida tazod san’ati orqali ohorli ifodalar, yangicha uslub hamda o’ziga xoslik kasb etganini ko’ramiz. Bahor sog’inch timsolida gavdalanib, Vatandan uzoqda yurgan lirik qahramonni sog’inch qiynaydi. Odatda bizni bahor emas, qishning izg’irinli kunlari, sovug’i qiynaydi. Bu yerda aksincha qish lirik qahramonni siylab, bahor qiynamoqda. Qishning siylovi tushiga lolalarni kiritgani. Qish bo’yi o’z ishi, tashvishlari bilan ovora bo’lib, bahor kelishi bilan inson ruhiyatida, qalbida yangilanish yoki ishq paydo bo’lishiga ishoradir. Bahor – yasharish, go’zallik, ishq-muhabbat fasli. Muhabbat esa vafosi bilan go’zal, ijodkor o’z ismining dorga osilishi ma’nosiga e’tibor qaratsak, dorga tortmoq birikmasi *o’ldirmoq* va ismni *dorga ilib, yoyib qo’ymoq* ma’nosi orqali chiroyli so’z o’yini qilganini ko’ramiz. Bir so’zni ikki ma’noda qo’llash san’ati esa *iyhom* deyiladi. Bahor xush ko’rgan ism – vafo, shoirning ismi ham Vafo. Bunday nozik qochirimli ifodani keyingi bandda ham uchratamiz. Bandning umumiy mazmuni quyidagicha: sovuq yurtda ona yurtini qo’msagan shoirni *sog’inch* qiynaydi. Shoir qish va bahor poetik obrazlari vositasida zamon hamda makon uyg’unligini

ifodalar ekan, o‘z ruhiyati evrilishlarini, vatanga bo‘lgan, yaqinlariga bo‘lgan so‘inchini shu tarzda tasvirlaydi.

Tazodning bunday yangicha, falsafiy-psixologik mazmun kasb etishi Abduvali Qutbiddin ijodida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoir ko‘pincha borliqdagi ikki ziddiyatli kuchni yoki holatni to‘qnashtirish orqali inson qismati haqidagi mushohadalarini bayon etadi:

Biri – KUNDUZ, biri – KECHADIR,

Biri – HAYOT, biri – O‘LIMDIR...

Biri – KO‘Z YOSH, biri – KULGIDIR... ..

Ikkisi ham she’rdir, shoirdir,

Ikkisi ham bitta taqdirdir<sup>33</sup>.

Bu o‘rinda *kunduz-kecha*, *hayot-o‘lim*, *ko‘z yosh-kulgi* kabi klassik tazodlar keltirilib, ularning barchasi “bitta taqdir” ekani aytiladi. Ya’ni, tazod bu yerda ziddiyatlarni ajratish uchun emas, balki ularning yaxlitligini, bir-birisiz mavjud bo‘la olmasligini (dialektik birlik) isbotlashga xizmat qilmoqda. Bu, o‘z navbatida, tazodning an’anaviy qo‘llanilishidan farqli o‘laroq, uning falsafiy umumlashma yasash vazifasi kuchayganini ko‘rsatadi.

Abduvali Qutbiddin ijodida ijtimoiy-axloqiy tazodlar kuchli. Uning “Baxtli yil” to‘plamidagi ko‘plab she’rlarida shaxs va olamon, poklik va riyokorlik qarama-qarshi qo‘yiladi. Masalan, “Subhidam” she’rida:

Subhidam edi u,

Fursatga cho‘ri,

Siynasin tutardi to‘ymas

Bog‘larga...<sup>34</sup>

Bunda *Subhidam* (poklik, bokiralik, yangilik ramzi) va *Fursat* (o‘tkinchi, dunyoviy, ochko‘z hoyu-havaslar ramzi) bir-biriga zid qo‘yiladi. “Subhidam”ning “Fursatga cho‘ri” bo‘lishi – ideallarning moddiylik oldida mag‘lub bo‘lishi, poklikning toptalishi haqidagi ijtimoiy fojia. Bu yerda tazod ikki mavhum tushunchani shaxslantirish orqali yanada kuchaytirilgan.

Hozirgi o‘zbek she’riyati tadrijining yana bir muhim jihati shundaki, mumtoz she’riyatdan ma’lum bo‘lgan an’anaviy tazod juftliklari (*kecha-kunduz*, *osmon-yer*, *gul-tikan*) saqlanib qolgan holda, ularga yangicha, kutilmagan falsafiy-psixologik ma’nolar yuklanmoqda. Masalan, *kecha-kunduz* (tun-kun) tazodi. Mumtoz she’riyatda bu ziddiyat asosan *zulf-yuz* (yorning qora sochi va yorug‘ yuzi) yoki *hijron-visol* (ayriliq tuni va visol kuni) ma’nolarida kelgan.

Aziz Saidning “Tungi hikoya” she’rida esa bu tazod butunlay yangicha, murakkab ramziy-majoziy mazmun kasb etadi:

Tun qora aroba yulduz tashiydi,

Ortidan qolmaydi tilamchi shamol. ...

Oy yig‘lar yo‘rgaklab tunda to‘kilgan,

Daraxtning ismsiz bolalarini<sup>35</sup>.

<sup>33</sup> Кутбиддин А. Бор. – Т.: Фафур Фулом, 2011. – Б. 11-12.

<sup>34</sup> Кутбиддин А. Бaxтли йил. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б. 35.

<sup>35</sup> Саид А. Вақт манзили. – Т.: Akademyashr, 2021. – Б. 224.

Bu she’rda *Tun* an’anaviy hijron yoki zulmat ramzi emas. Aksincha, u “yulduz tashiydigan” (ilhom, g’oyalar keltiruvchi) ijod va yaratuvchilik pallasiga aylangan. Unga zid qo’yilayotgan *Kunduz* (she’rda tilga olinmasa-da) esa oddiy, maishiy, ilhomdan xoli bo’lgan voqelikdir. Shuningdek, *Tun* bir vaqtning o’zida “Daraxtning ismsiz bolalari” (tashlandiq go’daklar yoki qog’ozga tushmagan she’rlar) tug’iladigan fojiaviy makon hamdir. Ko’rinadiki, hozirgi she’riyatda *Tun* obrazi “yomon” yoki “zulmat” degan bir yoqlama bahodan xoli bo’lib, unga ijod va fojia kabi ziddiyatli falsafiy ma’nolar yuklatilgan. Bu – tazod tadrijining yorqin namunasidir.

Bobning ikkinchi fasli **“Tazodni yuzaga keltiruvchi omillar hamda uning lingvopoetik xususiyatlari”** deb nomlanadi.

Yoqubjon Is’hoqovning “So’z san’ati so’zligi” kitobida ma’naviy san’atlar guruhiga kiritilgan tazod V. Rahmonovning “She’r ilmi ta’limi” qo’llanmasida, Nargiza To’lonovanning filologiya fanlari nomzodlik dissertatsiyasida lafziy san’at deb ta’riflangan. Atoulllo Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi” kitobida tazod mutoqiba tarzida berilib, mushtarak san’atlar qatoridan o’rin olgan. Ya’ni ham lafziy, ham ma’naviy san’atlarga mansub san’atlar sirasiga kiritilgan. Filologiya fanlari nomzodi Dilnavoz Yusupovanning “Aruz vazni qo’idalari va mumtoz poetik asoslari” o’quv qo’llanmasida ham mushtarak san’atlar qatoridan o’rin olgan. Mana shunday turlicha tasniflanishlar tufayli bo’lsa kerak, ko’pgina mualliflarning maqola va tadqiqotlarida tazod san’atining qaysi guruhga kirishi ko’rsatilmay ketilgan. Bizningcha, ham shakliy, ham ma’naviy xususiyatlarga ega tazod mushtarak san’atlar qatoridan joy olishi e’tirozsiz o’rinlidir.

Tazodning har xil guruhlarda tasniflanishi quyidagi jadvalda ko’rsatildi:

Ma’naviy	Lafziy	Mushtarak
T. Boboyev <sup>36</sup>	V. Rahmonov <sup>37</sup>	A. Husayniy <sup>38</sup>
Y. Is’hoqov <sup>39</sup>	A. Hojiaxmedov <sup>40</sup>	D. Yusupova <sup>41</sup>
X. Umurov <sup>42</sup>	N. To’lonova <sup>43</sup>	E. Niyozmatov

Tazodning imkoniyatlari kengligi, uni yuzaga keltiruvchi omillar ko’pligi uchun ham undan mukammal va hayratlanarli tasvirlar yaratish mumkin. Shakl va ma’no jihatidan tazodni yuzaga ketiruvchi birliklar quyidagi chizmada ko’rsatilgan:

<sup>36</sup> Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 83.

<sup>37</sup> Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Ленинобод, 1972. – Б. 245.

<sup>38</sup> Атоулло Хусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. Алибек Рустамов таржимаси. – Т.: Фафур Фулом, 1981. – Б. 225.


<sup>39</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Т.: Ўзбекистон, 2014. Б. 191.

<sup>40</sup> Ҳожиахмедов А. Шеър санъатлари ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 1998. – Б. 84.

<sup>41</sup> Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika. – Т.: Ta’lim-media, 2019. В. 171.

<sup>42</sup> Умуров Х. Адабиёт қоидлари. – Т.: Ўқитувчи, 2002. – Б. 42.

<sup>43</sup> Тўлонова Н. М. Ҳозирги Ўзбек шеърлигида бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили (Шавкат Раҳмон, Азам Ўктам, Иқбол Мирзо шеърлиги мисолида). Филол.фан.номз.дисс. – Т, 2009. – Б. 146.



Oldingi boblarda tashxis san'atining ichki tematik tasniflab chiqqanimizday, tazod san'atini ham xuddi shunday tasniflab yuzaga kelish omillarini o'rganishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Narsa-buyumlar (kontekstda): qog'oz-qalam, o'q va yoy;

belgi – xususiyatlar:

a) bo'yoqsiz holda: yaxshi-yomon, xunuk-chiroyli, baxil-saxiy;

b) bo'yoqdor holda: xunuk-go'zal, hurliqo-badburush;

miqdor-daraja: oz-ko'p, kam-mo'l;

holat: issiq-sovuq, baland-past;

harakat va holat: kuldi-yig'ladi, bordi-keldi, xafa bo'ldi-sevindi;

shaxslar: shoh-gado, oshiq-ma'shuqa, do'st-dushman;

shaxs nomlari: Farhod – Husrav, Muso – Fir'avn, Alpomish – Ko'kaldosh, Tohir – Qorabotir, Jaloliddin – Chingizxon, Muso – Firavn, Axuramazda – Axriman;

paytni bildiruvchi so'zlar: yoz-qish, bahor-qish, kecha-kunduz, erta-kech;

o'rin-joy bildiruvchi so'zlar: ichkari-tashqari, oldida-orqasida, yer-osmon ustida-pastida;

mavhum tushunchalar: Orzu-armon, sadoqat-xiyonat, erk-tutqunlik;

maza-ta'm: achchiq-chuchuk, shirin-achchiq, taxir-xushta'm.

Hozirgi o'zbek she'riyatida bu san'atning o'ziga xos qirralari yana-da keng qo'llanib, go'zal namunalari yaratilyapti. Buni she'riyatga endigina kirib kelgan yosh shoirlar ijodidagi o'ziga xos, betakror tasvirlar misolida ham bemalol ayta olamiz.

She'riy san'atlarni yuzaga keltiruvchi vosita – til, tilning cheksiz imkoniyatlaridir. Masalan, tazod (qarshilantirish) san'ati tilda qarama-qarshi ma'noli so'zlar borligi sabablidir. Shunga o'xshash barcha badiiy san'atlar zaminida tilning vosita va imkoniyatlari turadi. Bu degani tildagi barcha vositalar badiiy san'atlarni yuzaga keltiravermaydi. Bu jarayonda faol qatnashadigan hamda qatnashmaydigan lisoniy vositalar bo'lishi aniq. Bu har qanday tilning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Shu o'rinda hozirgi o'zbek

she'riyati misolida ularning tazod san'atiga ham aloqador jihatlarini aniqlab, imkon qadar tahlil qilish ahamiyatlidir.

Antonimlar – tazod san'atini yuzaga keltiradi. Tazod san'atiga misol tariqasida berilgan barcha misollarda qarama-qarshi ma'noli so'zlar yo ma'no jihatidan, yo shakl jihatidan, ba'zan ham ma'no va shakl jihatidan bir vaqtning o'zida tazodni shakllantirgan.

Abduvali Qutbiddin

Xoin o'z shohini tutib qamadi,  
Tojni olib berdi yalangoyoqqa<sup>44</sup>.

Yassaviy tilidan tangriga nola qilib aytilgan she'ridan olingan ushbu misralarni tushunish uchun she'rni to'liq o'qish kerak. Shoir an'anaviy antonim so'zlardan foydalanib, tazodning o'ziga xos namunasini yaratgan. Bu parchada gadoning ma'nodoshi yalangoyoq so'zini qo'llagan.

Mayli, qor, yomg'ir yog'sin,  
U dilga bas kelolmas.  
Dilimdagi yorug'likni  
Zulmat tortib ololmas<sup>45</sup>.

Yuqoridagi misralarda yorug'lik va zulmat qarshilantirilgan. Lirik qahramonning dilidagi yorug'lik – kelajakka ishonch, ezgulik, umidni hech qanday salbiy holatlar, yomonliklar tortib ololmasligi ta'kidlangan. Haqiqatan ham dildagi imonni, ishonchni boshqalar tomonidan yo'qqa chiqarib bo'lmaydi. Tarix va adabiy jarayon uyg'unligi, lirik qahramon hissiyotlari, ruhiyati aks etgan misralarda mavhum so'zlar insoniylashgan. Birinchi misradagi qor, yomg'ir obrazlari qayg'u, kulfat ma'nosini anglatadi. Lirik qahramon har qanday musibat, kulfat, zulmat ko'nglimni cho'ktilolmaydi, ruhimni tushirolmaydi va ishonchimni, orzu-umidimni tortib ololmaydi deb ta'kidlayapti.

Asosdosh so'zlar ishtiyoq san'atini yuzaga keltiribgina qolmay, quyidagi misoldagidek ular o'zaro qarama-qarshi ma'nolarni ham yuzaga keltiradi:

Visol xavfi borar kamayib,  
Xavfsizlikdan dahshatga cho'mdim.  
Bu ne o'yin, bu ne tamoyil  
Xavfsiz ko'ngil badbaxt va bo'm-bo'sh<sup>46</sup>.

Bu yerda asosdosh so'zlarning o'zida ham zidlik borligi ko'rinadi. Xavf va xavfsizlik so'zlari tazodni yuzaga keltirgan. Band mazmunini zid ma'noli so'zlar orqali ochish, tushunish qiyinchilik tug'dirmaydi. Birinchi misradagi "visol xavfi" – uchrashuv, ikkinchi misradagi "xavfsizlik" – sensizlik, ya'ni firoq, ayriliq ma'nolarini anglatsa, to'rtinchi misradagi "xavfsiz" sevgisiz ko'ngilning badbaxt va bo'm-bo'sh idishga qiyoslanishi ham mumtoz she'riyat tasvirlariga hamohangdir.

Ko'p ma'noli so'zlar, ya'ni so'zni ikki ma'noda qo'llash – iyhom san'atini yuzaga keltiradi. Iyhom arabcha "shubhaga solish", "adashtirish" degan

<sup>44</sup> Кутбиддин А. Сўз чамани. – Т.: Академнашр, 2020. – Б. 30.

<sup>45</sup> Саид А. Ғойибдан дўст билан суҳбатлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2001. – Б. 28.

<sup>46</sup> Саид А. Вақт манзили. – Т.: Академнашр, 2021. – Б. 43.

ma'nolarni anglatadi va bunda ijodkor bir so'zni ikki ma'noda mahorat bilan qo'llaydi. So'zning birinchi zohiriy ma'nosi chalg'ituvchi, adashtiruvchi ma'nosi bo'lsa, ikkinchisi asosiy shoir fikrini ifodalaydi, uning bu so'zni qo'llashdan asl maqsadi ham shu bo'ladi.

Bemor bahor azang tutdi,  
Yer qa'rida ko'm-ko'k dalang<sup>47</sup>.

Vafo Fayzullohning bu misralarida bahor so'zi ikki ma'noda: biri ko'z yosh to'kib yig'layotgan (yomg'irli) bahor. Aza kuylagi ham ko'k rangda bo'lishiga ishora ham tasvirlangan. Ikkinchisi bemor so'ziga birikkan holda kuz faslini bildiriyapti. Bemor bo'lish uchun sarg'ayish (yuzning sarg'ayishi), shoir yam-yashil yaproqlarning kuzda sariq tusga kirishini nazarda tutib, so'z o'yiniga asoslanib, mazmuniy zidlikni yuzaga keltirgan. Ikkinchi misradagi ko'm-ko'k dalaning yer qa'rida ekanligi ham gap kuz haqida borayotganini ko'rsatadi. Bunday so'z o'yinlariga boy lirik asarlarning yaratilayotganligi yangi o'zbek she'riyatining yutuqlaridan hisoblanadi.

Sifatlovchi aniqlovchilar ham uyushib, tazodni yuzaga chiqarishi kuzatildi:

Xurliqo goh badburush lahzalar o'tib bitar,  
Momo tilla supurgi, kumush kul olib o'tar.<sup>48</sup>

Birinchi misrada sifatlovchi bo'lib kelgan so'zlar ayni vaqtda qarama-qarshi ma'noli bo'lganligi sababli bir vaqtning o'zida tazod va sifatlash hosil bo'lgan. Ikkinchi misradagi tilla hamda kumush so'zlari ham mazmun jihatidan tazodga o'xshasa-da, bu yerda birikma bilan birga anglatgan ma'nosiga e'tibor qaratiladi. O'tgan va o'tayotgan yillar, umrlar momo obrazi orqali tasvirlangan. U olib o'tayotgan "tilla supurgi" – kuz fasliga, "kumush kul" – qish fasliga qiyoslangan.

Arab harflari – kitobat san'atini hosil qiladi. Bu san'at harf san'atlari, harfiy san'atlar deb ham yuritiladi. Yor a'zolari arab alifbosidagi harflari shakliga o'xshatilib tasvirlanadi.

Sevganimcha alifdek edi bastim,  
Dolman endi bormidi menda qasding?<sup>49</sup>

Tik va egik ma'nolarini anglatgan bu harflarda zidlik quyidagi ma'nolarda namoyon bo'ladi: to'g'ri hamda egri; yosh, navqiron va kekxa, nuroniy; kelishgan, chiroyli – egilgan, beso'naqay. Demak, alif va dol harflari ma'no jihatidan tazod san'atiga yorqin misol hisoblanadi.

O'zbek she'riyatida tazodning poetik obraz yaratish va poetik mazmun ifodalashdagi ahamiyati, faol qo'llanilishi, mumtoz adabiyotdan hozirgi zamon she'riyatigacha bo'lgan davrdagi tadriji imkon qadar tahlil qilindi. Ko'rib chiqilgan she'r misralaridagi tazodlar faqatgina shakliy go'zallik, mazmun ifodasi bo'lmasdan, lirik asar qismlarining mantiqiy bog'lovchi vosita vazifasini ham bajaradi.

## XULOSA

<sup>47</sup> Fayзуллох В. Оқ лайлак. – Т.: Адабиёт, 2020. – Б. 63.

<sup>48</sup> Qutbiddin A. So'z chamani. – Т.: Akademnashr, 2020. – В. 33.

<sup>49</sup> Вафо Файзуллох. Оқ лайлак. – Т.: Муҳаррир, 2020. – Б. 134.

Tashxis va tazod san'atlari o'zbek badiiy tafakkuri uchun qadimiy va uzluksiz hodisa ekani aniqlandi. Ularning ilk kurtaklari qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi va Qur'oni Karimda uchrab, mumtoz adabiyotda yuksak badiiy-estetik vazifalarni bajargan.

1. Mumtoz adabiyotda tashxis va tazod san'atlarining qo'llanilishi, asosan, barqaror an'anaviy obrazlar tizimi bilan bog'liq bo'lgan. Tashxis ko'proq tabiat unsurlarini (gul, bulbul, oy, quyosh) ma'shuqa go'zalligiga qiyoslash orqali jonlantirishga xizmat qilgan bo'lsa, tazod, asosan, *oshiq-ma'shuqa (men-sen)*, *zulf-yuz* (qora-oq) kabi axloqiy-didaktik ziddiyatlarni ifodalashga yo'naltirilgan.

2. Badiiy san'atlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari tahlili shuni ko'rsatdiki, ularni tasniflashda hanuzgacha izchil bir tizim mavjud emas. Atamalarning xilma-xilligi, tasniflash mezonlarining noaniqligi (ma'naviy, lafziy, mushtarak; funksional; genetik), janr va she'riy elementlarning san'atlar qatoriga qo'shib ketishi kabi muammolar aniqlandi.

3. Mavjud tasniflarning qiyosiy tahlili hozirgi o'zbek she'riyatidagi tadrijiy o'zgarishlarni to'liq aks ettirmasligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib, tadqiqot uchun tashxis va tazodni *majoz* va *o'xshatishga* asoslangan san'atlar sifatida qabul qilish va ularni funksional asosda o'rganish asosiy metodologik tamoyil sifatida belgilandi.

5. Tashxis san'atining hozirgi o'zbek she'riyatidagi qo'llanilish obyekti (predmeti) tadrijiy jihatdan kengaygani aniqlandi. An'anaviy tabiat unsurlari bilan bir qatorda, zamonaviy shoirlar ijodida mavhum tushunchalar (*sukunat*, *xayol*, *dard*, *xiyonat*), inson a'zolari (*yurak*, *ko'z*) va toponimlar (*Samarqand*, *Toshkent*) ham faol shaxslantirilmoqda. Bu holatni tizimlashtirish maqsadida 12 guruhdan iborat tematik-funksional tasnif ishlab chiqildi.

6. Tashxisning badiiy vazifasi (funksiyasi) chuqurlashgan. An'anaviy she'riyatda ma'shuqa jamolini tasvirlash yoki didaktik mazmun ifodalashga xizmat qilgan bu san'at, hozirgi she'riyatda lirik qahramonning ichki dunyosini, uning murakkab ruhiy holatlarini va ekzistensial iztiroblarini (yolg'izlik, taqdir) badiiy tadqiq etish vositasiga aylangan.

7. Tashxis zamonaviy poetik obraz yaratishda tizim yasovchi (strukturoobrazuyuvchi) xususiyat kasb etgan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bir nechta tashxislar zanjiri orqali bir vaqtning o'zida ham tasviriy, ham psixologik, ham ijtimoiy-falsafiy qatlamlarga ega bo'lgan yaxlit, ko'p qatlamli ramziy-majoziy obraz yaratilmoqda.

8. Tashxis san'atining hozirgi she'riyatda boshqa san'atlar, ayniqsa, nido (murojaat) bilan sinkretik (qorishiq) holda kelishi kuchaygan. Lirik qahramonning jonsiz predmetga ("Ey ko'ngil...", "Qizg'aldog'im...") murojaat qilishi uni avtomatik ravishda shaxslantiradi va bu orqali shoirning "ruhoniylar suhbat"ga ehtiyoji ifodalanadi.

9. Tazod san'ati ham tadrijga uchrab, uning badiiy vazifasi an'anaviy axloqiy-didaktik ziddiyatlardan (yaxshi-yomon) falsafiy-ekzistensial qarama-qarshiliklarni (shaxs-jamiyat, borliq-yo'qlik) ifodalashga qarab rivojlangan. Tazod hozirgi she'riyatda ziddiyatlarni shunchaki ko'rsatish uchun emas, balki

ularning dialektik birligini ("bitta taqdirdir") ta'kidlash uchun ham xizmat qilmoqda.

10. Mumtoz adabiyotdagi "men-sen" muqobili hozirgi she'riyatda yangicha talqinlar topgan. U an'anaviy *oshiq-ma'shuqa* munosabatidan tashqari, ichki psixologik bo'linish (lirik "men" va uning ideali "sen" o'rtasidagi ziddiyat), ijtimoiy-falsafiy to'qnashuv ("men" – ijodkor va "sen" – o'quvchi/jamiyat) kabi yangicha, murakkab ma'nolarni ifodalashga yo'naltirilgan.

11. Tazodning lingvopoetik asoslari kengaygani kuzatildi. Hozirgi shoirlar nafaqat til tizimida mavjud bo'lgan (nokontekstual) antonimlardan, balki ko'proq she'riy matn doirasidagina ziddiyat hosil qiluvchi kontekstual tazodlardan (masalan, *bekat – karvon, tikan – qopqoq*) foydalanish orqali kutilmagan, yangicha falsafiy obrazlar yaratish mahoratini namoyon etmoqda.

12. Tashxis va tazod san'atlari hozirgi o'zbek she'riyatida o'zaro yaqin aloqada, ba'zan bir badiiy birlik ichida qarishiq holda kelib, bir-birining ta'sirini kuchaytiradi. Ular an'anaviy badiiy vositalar bo'lishiga qaramay, zamonaviy shoirlar ijodida yangicha mazmun va shakl kasb etib, zamonaviy insonning murakkab ichki dunyosini va borliq haqidagi ziddiyatli mushohadalarini ifodalashning faol va samarali usullari sifatida izchil tadrijda davom etmoqda.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 03/2025.27.12. Fil.05.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

---

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**НИЁЗМАТОВ ЭЛНУР ХУСИН УГЛИ**

**ЭВОЛЮЦИЯ ПРИЁМОВ ОЛИЦЕТВОРЕНИЯ И АНТИТЕЗЫ В  
СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ**

**10.00.02 – Узбекский литература**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ургенч – 2026**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2025.1.PhD/Fil3014.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни

Автореферат диссертации размещен на трех языках (русском, узбекском, английском (резюме)) на веб-странице научного совета ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)), а также на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziyo.net/uz](http://www.ziyo.net/uz).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Милиев Сувонкул</b> доктор филологических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Болтаева Гулчехра Шакировна</b> доктор филологических наук, доцент <b>Матякуров Садулла Гаипович</b> доктор филологических наук, доцент
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Бухарский государственный институт</b>

Защита диссертации состоится « 2 » апрель 2026 г. в 11:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 по присуждению ученой степени при Ургенчском государственном университете (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14). Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: [fil-ik.urdu.uz](mailto:fil-ik.urdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за № A-2209). (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00).

Автореферат диссертации разослан « 13 » марта 2026 г.  
(протокол реестра рассылки № 84 от « 13 » марта 2026 г.)



  
**Д.К. Гайипов**  
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук DSc, профессор

  
**С. Атажанов**  
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

  
**А.Н. Примов**  
Председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук DSc, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность востребованность** темы диссертации **Узбекская поэзия**, внесшая своеобразный и **огромный вклад в сокровищницу мировой классической литературы** и обладающая богатым историческим наследием, постоянно развивается и совершенствуется, обогащаясь языком, художественным своеобразием, стилями, содержательными и формальными изменениями. В достижении нынешнего расцвета современной узбекской поэзии наряду с творцами участвуют и литературоведы, которые своими научно-теоретическими изысканиями, научными и практическими пособиями, брошюрами и статьями, посвященными новым идеям, новым трансформациям и изменениям, вносят вклад в дальнейшее развитие этой области.

В мировом литературоведении важное теоретическое значение имеют исследования, направленные на изучение вопросов поэтики, характерных для восточной классической поэзии, в частности, на **определение особенностей и эволюции художественных средств, изучение их исторического развития, а также на раскрытие своеобразной роли, функций и значения таких приемов, как олицетворение (ташхис) и противопоставление (тазод)**, в создании образности и в системе стихотворных искусств. Впервые внимание к вопросу художественного изображения было уделено в «Поэтике» Аристотеля, где признается, что «эстетико-воздействующая сила литературы» имеет актуальную научно-теоретическую ценность.

В нашей стране в этой области был проведен ряд исследований и научных изысканий до обретения независимости. После обретения независимости особое внимание стало уделяться изучению творчества таких поэтов, как **Усман Азим, Хуршид Даврон, Абдували Кутбиддин, Азиз Саид, Вафо Файзуллах**, а также соответствующей оценке их творчества, исследованию методов выражения, средств художественного изображения и возможностей, свойственных классической поэзии. Следовательно, изучение художественных средств, определяющих поэтику стиха, как объекта научного исследования и объективная оценка узбекской поэзии в связи с духовными ценностями узбекского народа являются одной из **актуальных проблем узбекского литературоведения**.

Несмотря на то, что в восточном литературоведении, в частности, в узбекском литературоведении, был выполнен ряд исследований, связанных с вопросами классической поэтики, в них лишь частично изучался вопрос устранения неточностей в определениях и классификациях художественных средств как отдельная научная проблема. Эти неточности и различия в определении принадлежности того или иного приема к определенной группе порождают разночтения в их изучении, что, в свою очередь, вызвало необходимость устранения этих различий, обобщения взглядов на тему и пересмотра вопроса на основе нового подхода. Например, хотя такими учеными, как **А. Ходжихмедов, Ё. Исхаков, З. Мамаджанов**, были созданы общие теоретические классификации художественных средств, эти

классификации в основном опираются на классическую литературу и общие критерии стихосложения. **Именно эволюция использования олицетворения (ташхис) и антитеза (тазод) на материале современной узбекской поэзии (конец XX – начало XXI вв.), их роль в создании новых философско-психологических образов (например, абстрактных понятий – «предательство», «мечта»; внутреннего «я» человека), выходящих за рамки традиционных шаблонов (например, роза-соловей, луна-солнце), не изучалась в качестве отдельного объекта исследования.** Существующие классификации не могут полностью охватить эти обновления в современной поэзии и их эволюционное развитие. Данное исследование направлено на восполнение этого научного пробела путем анализа эволюции традиционных приемов в современной поэзии.

